

MAQSUD SHAYXZODANING “MIRZO ULUG‘BEK” ASARI
TAHLILI

*Toshkent davlat transport universiteti
talabasi: Komilov Akrom Oybek o‘g‘li*



Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasi, dramaning o‘ziga xos kompozitsiyasi, tarixiy kolorit, shoirning obrazlar yaratish mahorati, Mirzo Ulug‘bekning ilm-fan homiysi sisatidagi faoliyati, o‘ziga xos xarakterlarning yaratilganligi, shoirning so‘z ishlatish mahorati, badiiy asar ta‘sirchanligi haqida ilmiytahliliy fikrlar berilgan ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Maqsud Shayxzoda, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, tahlil, asarlar, o‘zbek dramaturgiyasi.

Maqsud Ma’sumbek o‘g‘li Shayxzoda 1908-yil 7-noyabrda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tavallud topadi. Otasi Ma’sumbek elu-yurtda katta obro‘ga ega shifokor bo‘ladi. U san’at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqar edi. U boshlang‘ich o‘rta ma’lumotni Oqtoshda olgach, Boku oliy pedagogika institutida sirdan o‘qiydi. Shayxzoda 1926- yili Adhem Farziy tashkilotiga a’zo etilgan “Milliy firqa” tashkilotiga a’zo bo‘lib ,musobitchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1927- yil hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan (1928). Maqsud Shayxzoda 1928-yil fevral oyida Toshkentga keladi. Avvaliga ozarbayjonlik tanishlarining uyida yashaydi, keyinchalik esa shoir Dadakishiyning uyida ijarada turadi. Bir yil ichida o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtirib olgach, o‘zbek maktablariida dars berishni boshlaydi. Bu orada O‘rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga ham o‘qishga kiradi va faoliyati ancha kengayadi. O‘ziga bir qancha do‘stlar, hamfikrlar topadi. Kelgusida katta yozuvchilar



qatoridan joy olajak G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor singari yoshlari bilan tanishib oladi. Bir oz vaqt “Qizil O‘zbekiston”, “Sharq haqiqati” va “Yosh Leninchi” gazetalarida ishlaydi.

Maqsud Shayxzodaning tarixiy-biografik janrda yaratilgan,besh pardali “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy fojiasi 20-asr o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Ijodkor buyuk alloma hayoti qirralarini ochib berar ekan,Ulug‘bekning shaxsiy fazilatlari: aql- zakovati, donoligi va xalq uchun buyuk xizmatlarini o‘sha davrdagi jaholat,adovat,tengsizlik botqog‘iga botgan jamiyat o‘rtasidagi kurash bilan birga yoritib berishga harakat qilgan. Asar nihoyatda yuksak darajada mahorat bilan yozilgan. “Undagi tasvirlangan hayot dramatizmi jihatidan eng mashhur tragediyalardagidan zarracha kam emas, asardagi yetakchi xarakterlar har jihatdan barkamol,qahramonlarning gaplarini aytmaysizmi-aksariyati purma’no,hikmatga boy. Albatta, hayotda Mirzo Ulug‘bek chinakamiga donishmand odam o‘tgan bo‘lsa kerak – Shayxzoda asarni yozish jarayonida shu darajaga ko‘tarila olgan,uning qiyofasiga kirib turib,ichki dunyosini tugal o‘zlashtirib turib qalam tebratgan...“Mirzo Ulug‘bek” dramasini hech ikkilanmagan holda jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorda qo‘ysa bo‘ladi”1.

Maqsud Shayxzoda asarni yaratishdan oldin uzoq yillar davomida Ulug‘bek yashagan davri haqida yozilgan kitoblar va ma’lumotlarni diqqat bilan sinchiklab o‘rgangan. Agar shunday bo‘limganida ehtimol drama bunchalik real faktlarga boy, hayotiy lavhalari ta’sirchan, ziddiyat va to‘qnashuvlarni mohirona ochib berolmagan bo‘lardi.“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi bosh qahramoni faoliyati,boshidan kechirgan voqealar va qahramonlar hayoti shunchalik hayotiy voqelikka monand tasvirlanganki, kitobxon asar qahramonlari ichiga tushib qolib, bevosita ular hayoti bilan o‘zi ham yashaydi, to asar nihoyasiga yetgungacha bu hissiyot, ruhiy kechinmalar og‘ushida turli vaziyatlarda uni tark etmaydi.Chunki, adibning ”Mirzo Ulug‘bek” fojiasida “shohlikni ma’rifatga dastyor qilgan”sulton Mirzo Ulug‘bek hayotining eng fojiaviy bo‘lagi tasvirga olinadi. Muallif sulton Ulug‘bek boshidan kechirgan voqealarni bayon etishga, ularning tarixdagi salmog‘ini ko‘rsatishga emas,balki



qahramonlarning ruhiy holati hayotiy vaziyatga muvofiq tarzda tasvirlanishiga ahamiyat beradi”

Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” asarida Ulug‘bekni “inson-olim-davlat arbobi” sifatida aks ettirishga intilgan. Ammo buning o‘zi ham oson ijodiy ish emas edi.

Shubhasiz, Ulug‘bek fojiasini keltirib chiqargan bu hayotiy masalalarni o‘zaro aloqada va uzviy bog‘liqlikda tasvirlash Shayxzodadan katta mahoratni talab etdi.

Mirzo Ulug‘bekning ham inson, ham olim, ham davlat arbobi sifatidagi obrazini badiiy mujassamlashtirish uchun ko‘plab personajlarni asar to‘qimasiga olib kirdi va bu personajlar harakat etajak syujet chiziqlarini ishlab chiqdi. Bunday personajlar tarixiy voqelikning o‘zida serob bo‘lishiga qaramay, dramaturg ularni saralab ola bildi va shu bilan birga badiiy to‘qimadan ongli ravishda foydalanib, ya’ni to‘qima qahramonlar obrazini asarga dadil jalb eta oldi. Shaxzodani talabalarimiz buyuk tarjimon sifatida ham bilishadi. Uning yuksak did bilan amalga oshirayotgan tarjimalari hech qachon o‘z qiyamatini yo‘qatmaydi. Uning Pushkinining “Mis cgavondoz”, “Kavkaz asiri” va shunga o‘xshash ko‘p asarlri tarjima qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2016 yil.
2. Maqsud Shayxzoda. Mirzo Ulug‘bek. “O‘qituvchi”. Toshkent. 1994 yil, 134-bet.
3. Qozoqboy Yo‘ldoshov. Yoniq so‘z. “Yangi asr avlodi”. Toshkent. 2006 yil, 217-bet.
4. Ozod Sharofiddinov. Ijodni anglash baxti. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. T.: 2004, 544-bet
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
6. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
7. Shayxzoda Maksud. Shoир qalbi dunyonи tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, "Nihol", 2008. - 28 b.